"T A S D I Q L A Y M A N"

"O'zmilliybank" AJ Shaxrisabz
BXM boshqaruvchisi v.b

_____ **R.D.Azizov**

"17" _____ **2026 yil**

M A J L I S BAYONI

"17 " fevral 2026 yil № 1 Shaxrisabz shahri

Raislik qiluvchi: **R.D.Azizov** –"O'zmilliybank"AJ Shaxrisabz BXM boshqaruvchisi

Qatnashdilar: BXM barcha xodimlari *(ro'yxat bo'yicha)*

K U N T A R T I B I:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabr kuni taqdim etilgan O'zbekiston xalqiga murojaatnomasidagi Korrupsiayaga qarshi qat'iy kurash e'lon qilingani bo'yicha

2.O'zmilliybank AJ Shahrisabz bank xizmatlari markazida "Davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va shakllari hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga oid qonunchilik" bo'yicha

3.Korrupsiyaga qarshi kurash, uni oldin olish va korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish" to'g'risida

---

Kun tartibidagi masala yuzasidan Shaxrisabz BXM boshqaruvchisi R.Azizov so'zga chiqib, yigilish qatnashchilariga "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabr kuni taqdim etilgan O'zbekiston xalqiga murojaatnomasidagi Korrupsiayaga qarshi qat'iy kurash e'lon qilingani " bo'yicha xodimlarni tanishtirib o'tdi.

Murojaatnomaga Eng muhimi, davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilisiz, korrupsiya va ortiqcha byurokratiyadan xoli ekotizim yaratamiz. Davlat xizmatlarini proaktiv va jamlanma shaklda ko'rsatish tizimini rivojlantiramiz.

Takror va takror aytaman. Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid.

Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa – islohotlarimizga xiyonatdir. Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026 yilda "favqulodda holat" e'lon qilamiz.

Barcha idoralarda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etiladi. Hisob palatasining vakili faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ushbu rahbarlar tizimdagi nopok shaxslarni aniqlash, shuningdek, byudjet mablag'i talon-toroj bo'lishi va mansabni suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish bo'yicha ta'sirchan nazorat o'rnatadi va Prezident oldida hisobot beradi.

Davlatning har bir so'm mablag'i, resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi.

"Lavozimim, unvonim bor, menga hyech kim tegmaydi", deganlar adashadi. Qonun oldida hamma teng!

Ichki ishlar, prokuratura, soliq, bojxona, moliya, bank, yirik davlat kompaniyalari, vazirlik va hokimliklar, bir so'z bilan aytganda, birorta idora va tashkilot nazoratdan chetda qolmaydi.

Komplayens xizmatining faoliyatiga to'sqinlik qilganlar – korrupsiyaga sherik, deb baholanadi va javobgarlik shunga mos holda bo'ladi.

Prezident Administrasiyasi Komplayens xizmati bu tizimni 1 yanvardan boshlab barcha davlat idoralari va tashkilotlarida ishga tushirib, jilovni mahkam qo'lga olsin.

Mansabidan qat'iy nazar, poraxo'rlik va suiiste'molchilik bo'yicha har bir holat yuzasidan Prezident Administrasiyasi Komplayens xizmati shaxsan menga axborot kiritib boradi.

"lavozimim va unvonim bor, menga hech kim tegmaydi" deb hisoblagan shaxslar yanglishayotganini, qonun oldida barcha teng ekani alohida ta'kidlandi.

Komplayens xizmatining faoliyatiga to'sqinlik qilganlar – korrupsiyaga sherik, deb baholanishi va javobgarlik shunga mos holda bo'lishi aytib o'tilgani ma'lum qilindi.

Bundan tashqari Shaxrisabz BXM boshqaruvchisi R.Azizov yig'ilishni davomida "Manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasining asosiy xususiyatini shaxsiy manfaatdorlik tashkil etadi. Shaxsiy manfaatdorlik esa, moliyaviy (mulkiy) daromadlar ko'rish shaklidagi tijoriy (iqtisodiy), xizmat vakolatlaridan foydalanish bo'yicha huquqlar yaratishda ifodalanadigan siyosiy, shuningdek, o'zi va qarindoshlari uchun imkoniyat yaratadigan shaxsiy manfaatdorlikdan iborat ekanligini, boshqacha qilib aytganda, shaxsiy manfaatdorlik bevosita – davlat xizmatchisining o'zi bilan bog'liq bo'lsa ham yoki bilvosita – davlat xizmatchisiga to'g'ridan-to'g'ri manfaat olib kelmasa-da, uning qarindoshiga, boshqa tanishlariga, shuningdek, u bilan ishbilarmonlik muhitida bo'lgan shaxslar bilan bog'liq holda yuz bersa ham holatga manfaatlar to'qnashuvi sifatida baho berishni aytib o'tdi. Manfaatlar to'qnashuvi davlat xizmatchisi xizmat vazifalariga

kiradigan harakatlarni amalga oshirishi va yoki oshirmasligi natijasida shaxsiy manfaatdorlik asosida uchinchi shaxslarning, davlat va jamiyat hayotining turli sohalariga iqtisodiy va boshqa tusdagi zararlarni yetkazish oqibatlariga olib kelishi bildirib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida o'zaro yaqin qarindosh yoki quda-anda bo'lgan shaxslarning, basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo'lsa, bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari taqiqlanganligi, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining asoslaridan biri - bu shaxsiy manfaatdorlik hisoblanishi, qarindoshlar o'rtasida esa manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining ehtimoli yuqori hisoblanishi. shu jihatdan olib qaraganda, Qonun chiqaruvchi mehnat faoliyatini olib borishda qarindoshlik masalasiga ham alohida e'tibor qaratilganligi aytib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PK-5177-sonli qarorida ham korrupsiyaga, shu jumladan, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan shartnomalarni haqiqiy emas deb topish, davlat xizmatchilari tomonidan tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etganligining huquqiy oqibatlarini belgilash bo'yicha vazifalar belgilanligi ta'kidlab o'tildi.

Kun tartibida qayd etilgan masala yuzasidan bildirilgan fikr - mulohazalar va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan kelib chiqib, ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida, majlis

Q A R O R Q I L A D I:

1. Bank tizimida bank xodimlari tomonidan qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ymaslik, korrupsiya, ta'magirlik va poraxo'rlikning har qanday turlarini oldini olish, lavozim vazifalarini halol va sidqidildan bajarish hamda bank xodimlari etikasiga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni talablariga qat'iy amal qilish va mazmun mohiyatini bank xodimlariga yetkazish;
3. Mazkur majlis bayoni bilan barcha xodimlari tanishtirilsin.

Majlis kotibasi **M.E.Botirova**

2026-yil 17- fevraldagi №1 sonli va №2 sonli bayonnomaga ilova

№	Исм Фамиля Очества	Imzo
1	**Азизов Руслан Дилшодович**	
2	Тошпулатов Зухриддин Дониёр ўғли	
3	Жураев Хакимбек Абдухафизович	
4	Хақбердиев Улуғбек Рўзимуродович	
5	Шербобоев Шухрат Фарходович	
6	Убайдуллаев Жасурбек Баходир ўғли	
7	Халимов Умид Бутайвич	
8	Садиков Юсуф Уракович	
9	Маджитов Содиқ Бурхонович	
10	Каримова Хафиза Абдуғаффоровна	
11	Жалилов Жавохир Бобур ўғли	
12	Қобилов Улуғбек Эшпўлат ўғли	
13	Одилов Нодирбек Бегимқулович	
14	Жабборова Дилсуз Туйчиевна	
15	Саъдуллаева Лобар Фарходовна	
16	Абдурахмонова Дилноза Паттоховна	
17	Каримова Турачучук Абдукодировна	
18	Азизова Раъно Фарходовна	
19	Ахматова Мархабо Акрамовна	
20	Авлаева Фаёза Эшқобиловна	
21	Қурбонова Зилола Ғайратовна	
22	Ботирова Мохигул Элмуродовна	
23	Бурханова Гузаля Қаххоровна	
24	Темиров Голиб Нуриддинович	
25	Худойбердиева Лутфия Самадовна	
26	Хайдарова Дилдора Мухитдиновна	
27	Тухтаев Қувонч Абдукаюмович	
28	Ходиева Зухра Анваровна	
29	Аллаев Азамат Эгамбердиевич	
30	Халилов Абдураим Ибодуллаевич	
31	Қорахонов Аброр Бойсунович	
32	Абдуллаев Зарбодбек Тошпўлаточ	
33	Исматов Илёс Илхомович	
34	Хақбердиев Акбар Акрам ўғли	
35	Турсунова Лутфия Ахматовна	
36	Турдиев Жонибек Аслиддин угли	
37	Гайратов Аббос Бахтиёр угли	

Galaxy S21+ 5G

Galaxy S21+ 5G